



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TABIATSHUNOSLIK DARSLARI ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH USULLARI

Erkinova Shohsanam Faxriddin qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiatshunoslik darslari orqali mustaqil fikrlashga o'rgatishning ahamiyati, tabiatshunoslik darslarida qo'llanadigan usullar to'g'risida batafsil hikoya qilinadi.

Tayanch tushunchalar: sigir, ot, qo'y va parranda, parvarish qilish, o'lka, "Aqliy hujum", "Klaster", "Kichik guruhlarda ishlash", "6x6x6", "Lahzada aql charxi", "Qarorlar mojarosi" (qaror qabul qilish texnologiyasi)

Maktab ta'limida o'quv fani mazmunining hajmini belgilash va dars uchun material tanlash bilan bir qatorda, o'qitish uslublari ham katta ahamiyatga ega. Mazmuni va o'quvchilarning bilish faoliyatiga muvofiq tarzda tanlangan uslublar bilim sifatining yuqori bo'lishini, shu bilan birga o'quvchilarni tabiatni sevrishga, mustaqil fikrlashga o'rgatishda asosiy manba hisoblanadi. Bunday uslublar o'quvchilarning rivojlanishiga, bilimning puxta, ongli bo'lishiga yordam beradi va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Uslub o'zining umumiy ma'nosida maqsadga erishish usuli. ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyatdir. Darsda o'qituvchi turli ta'lim uslublariidan foydalanadi, o'qitish uslublariini tanlash, bir qator omillar, yordamchi maktabning hozirgi bosqichdagi taraqqiyoti, o'quv fani, o'rganiladigan materialning mazmuni, o'quvchilarning yoshi va ularning rivojlanish xususiyatlari hamda o'quv materiallarini egallashga tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi materialga mos tarzda ko'rgazmali materiallarni tanlaydi va tushuntiradi. Bunda o'quvchilarning yangi bilim olishi uchun asosiy manba so'z hisoblanadi: hikoya, tushuntirish, ma'ruza, suhbat. O'quvchilarning faoliyati ko'proq eshitish, fikrlash va keyingi javoblarda ifodalanadi. Boshqa metodlarning qo'llanilishi o'qituvchining narsa va hodisalarni ko'rsatishi, namoyish qilishi o'quvchilarga bilim berishda asosiy



manba hisoblanadi. O'qituvchi shunday metodlarni qo'llaydiki, bunda o'quvchilar amaliy ishlarni bajarish jarayonida ko'proq bilim oladi. Ular, topshiriq va vazifalarga binoan, urug' va mevaning tuzilishini, tilling miqyosini chiqishini, maktab o'quv-tajriba uchastkasida ekish va parvarish qilish, chorva fermalarida sigir, ot, qo'y va parrandalarni parvarish qilish, ovqatlantirish ishlarini bajaradi, 2-o'quvchilarga so'zlab berishningina emas, shu bilan birga, gulni qumlariga ajratish, ularning rasmini chizishni ham taklif qiladi. Har bir metod va ularning butun tizimi o'quvchilar mustaqilligini rivojlantirish maqsadini ko'zlaydi. O'quvchilarni darsda tushuntirishni faol eshitib borishga, kitob bilan mustaqil ishlashga, amaliy ishlar bajarishga fikr yuritishga o'rgatadi. O'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlashi uchun o'qituvchi chidam bilan o'rgatishi va rahbarlik qilishi kerak.

Sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etishda "Aqliy hujum", "Klaster", "Kichik guruhlarda ishlash", "6x6x6", "Lahzada aql charxi", "Qarorlar mojarosi" (qaror qabul qilish texnologiyasi) kabi interfaol usullardan va ta'limiy o'yinlaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, fikrini jamoa bilan maslahatlashishga o'rgatdi, muammolarni hal qilishda ishtirok etish maylini yuzaga keltirdi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarida o'rganiladigan turli mavzulardagi asarlarni o'rganishda muammoli vaziyatlar yaratish o'quvchilarda o'quv faoliyatini aktivlashtirdi. 4-sinfda "Fasllar ko'rki" mavzuni o'rganishda interfaol usul "Klaster"dan foydalaniladi. O'quvchilar o'qigan asarlari: Rauf Tolibning "Gullar va shamol" ertagi Abduraxmon Akbarning "Osmonning ko'zi", N. Ostonovning "Bahor", T. Adashboevning "Navro'z", "Boychechak", Z. Diyorning "Binafsha" she'ri asosida "Bahor" mavzusida klaster hosil qiladilar. Tabiatshunoslik fanini o'rganishda kuzatish, ekskursiya, tajriba, amaliy ishlar yetakchi o'rin tutadi. Bolalarni kuzatish usullariga o'rgatish, ularning natijalarini kundalik daftarga belgilash, ular asosida xulosa va umumlashmalar chiqarish davom ettiriladi. Ekskursiyalar o'tkazishga, tabiat ashyolari va voqeligini tabiiy holatda o'rganishga katta e'tibor beriladi. Ekskursiya darsi davomida yig'ilgan ko'rgazmali materiallardan sinflarda



o'tkaziladigan darslarda ham foydalanish mumkin. Shuning uchun ham tabiatshunoslik darslarini o'tkazishga alohida e'tibor berish zarur.

Jamiyatimizda vatanparvarlik tarbiyasini baynalmilalchilik tarbiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buning uchun tabiat muhofazasi yetarli material beradi. Shunga ko'ra vatanparvarlik tarbiyasini atrof tabiatni o'rganishdan boshlash kerak. Tabiatga muhabbat va uni asrash hamda muhofaza qilishga intilishni tarbiyalash. Tabiatga muhabbat ulkan va murakkab hissiyotdir. U bolaning ruhiy va aqliy dunyosini o'z ichiga olib murakkab psixik kompleksni hosil qiladi. Bu hissiyotni tarbiyalashni Iwla esini taniy boshlaganidan boshlash kerak, chunki unda jonajon tabiatga muhabbat bilan birga jonajon o'lkaga ko'ngil qo'yish o'sib boradi. Bolalikda tug'ilgan bu hissiyot maktab yillarida shakllanib, boyiydi, bunga ma'lum darajada tabiatshunoslik yordam beradi, albatta, u tabiat go'zalligini qabul qilishgagina emas, balki uni muhofaza qilishga, shuningdek, ko'paytirishga ham o'rgatadi. Atrof-muhitga ongli munosabatni tarbiyalash uchun birinchi sinfdan boshlaboq atrof olam bilan tanishtirish bo'yicha mashg'ulotlarda (tabiiy xarakterdagi maqola o'qilgandan keyin) bolalar oldiga amaliy vazifalar qo'yish zarur. Ikkinchi sinfda shu predmet bo'yicha bilimlar doirasi kengaytirilayotganda nazariy bilimlar, amaliy mashg'ulotlar (qishlovchi qushlarga yordam, yashil ko'chatlarni himoya qilish, erta gullovchi o'simliklarni qo'riqlash) bilan bog'lanadi. Uchinchi sinfda tabiatdan foydalanish, uni muhofaza qilish borasida odamlar mehnatiga alohida e'tibor beriladi. To'rtinchi sinfda tabiat muhofazasi bo'yicha bilimlar quyidagi tartibda muntazamlashadi: jonajon o'lka — Vatanimiz tabiatini qo'riqlashi. O'quvchilar tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish katta ahamiyatga ega ekanligi haqida dastlabki tushunchalarga ega bo'ladilar. Konstitutsiyada yozilgan tabiat muhofazasi to'g'risidagi modda mamlakatimizda tabiatni qo'riqlash bo'yicha amalga oshirilayotgan siyosatning natijasi degan qarashlar singdirib boriladi. Bu siyosat tabiatni muhofaza etishga oid dastlabki hujjatlar bilan uzviy bog'langan. Muhimi shundaki, tabiatshunoslik darslari o'quvchilarni tabiatga doir bilimlar bilan boyitib, ularni Vatanimiz tabiati bilan faxrlanish tuyg'ularini mustahkamlaydi.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tabiatni asrash masalasi tabiatshunoslik fanining bosh vazifalaridan biri bo'lib, u bolalarda tabiiy boyliklarni asrash va ko'paytirishga intilishni tarbiyalashga yordam beradi. O'quvchilar tabiatning biron-bir bo'lagining halokati boshqalarining halokatga olib kelishi haqida tasawurga ega bo'ladi; ular o'simlildarni o'stirish, mahalladagi daraxtlarni parvarishlash, qushlarni boqish uchun o'simliklar mevasini terish, maktab bog'ida o'stirish uchun gullar urug'ini ekish, jonli tabiat burchagida ishlash kabi tabiatni asrash yumushlarida qatnashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - T., 1997-y.
2. A.Hamidov A.To'xtaev va boshqalar. Botanikadan o'qituvchilar uchun qo'llanma. -Toshkent: "O'qituvchi". 1999-yil.
3. Баратов П, Ўзбекистон табиий географияси. Педагогика институтларнинг талаблари учун ўқув қўлланма.-Т.: Ўқитувчи, 1996.-246 б.
4. Bahromov A.D. Tabiatshunoslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. — T.: "Sharq", 2011 yil. - 120 b.